

## **XIV – XVI ASRLARDA MARKAZIY OSIYODA TABIIY-ILMIY, IJTIMOYIY– FALSAFIY FIKRLAR**

**Ramatov Jumaniyoz Sultonovich**

Falsafa fanlari doktori, professor

**Sultanov Sirojbek Xabibullayevich**

Dotsent v.b.

Toshkent davlat transport universiteti

+99 894 620 35 10

[sirojbek.sultanov@mail.ru](mailto:sirojbek.sultanov@mail.ru)

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada O'rta Osiyo xududida XIV – XVI asrlarda yashab o'tgan mutafakkurlarning ijtimoiy–falsafiy fikrlari tahlil qilingan. Bundan tashqari o'rta asrlar davri g'oyalari yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Falsafa, Temuriylar, Baxouddin Naqshband, falakiyot, musiqashunoslik.*

### **ABSTRACT**

*The article analyzes the socio-philosophical thoughts of thinkers who lived in the territory of Central Asia in the 14th - 16th centuries. In addition, the ideas of the medieval period are covered.*

**Key words:** *Philosophy, Timurids, Bahauddin Naqshband, catastrophe, musicology.*

### **KIRISH**

XIV – XVI asrlar Markaziy Osiyo tarixga Temuriylar davri nomi bilan kirgan. Chunki xalqimiz mo'g'ullar asoratidan ozod bo'lib, markazlashgan mustaqil milliy davlatga ega bo'lgan davr hisoblanadi. Bu davr falsafasi xalqimizning Soxibqiron Amir Temur boshchiligida ozodlikka erishgan va mustaqillikni saqlash hamda mustahkamlash uchun amalga oshirgan buyuk ishlarining ifodasidir. Mazkur davrda mamlakatda tartib–intizom va qonun ustivorligi ta'minlandi. Iqtisod, fan va madaniyat yuksaldi, xorijiy mamlakatlar bilan mustahkam aloqalar o'rnatildi. Temur va Temuriylar davrida islom dini va tasavvufga katta e'tibor berildi. Islom asosida shakllangan naqshbandiylik g'oyalari bu davr mafkurasining umumiy yo'nalishi bo'lib qoldi. Natijada islom bag'rikenglik diniga aylanib, undagi mutaassiblikka moyillik chekkaga chiqib qoldi. Bu hol markazlashgan davlat barpo etishda, iqtisod, madaniyat va ilm–fan ravnaqiga erishish uchun ma'naviy va nazariy asos bo'lib xizmat qildi. Amir Temur o'z faoliyatida unga tayanib ish ko'rdi.

Soxibqiron tasavvufdan mamlakatdagi salbiy illatlarni yo'qotishda, turli janjal va nizolarni bartaraf qilishda, haqiqat va adolat o'rnatishda, insonparvarlik g'oyalarini tarqatishda foydalangan. Temur tasavvufdagi poklanish, to'g'ri va sofdil bo'lish, zino va faxsh ishlar bilan shug'ullanmaslik, xarom–xarish ishlardan qochish, halol mehnat qilish, biror kasbni egallash, muhtojlarga mehr–shafqat ko'rsatish kabi shartlardan mohirona foydalandi. Temuriylardan SHohrux, Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Bobur Mirzolar davlatni boshqarishda tasavvuf qoidalariga amal qilib, ilm–fan va madaniyatni rivojlantirishda uning tajribalariga tayandilar.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Ma'lumki, XIV asr o'rtalarda Baxouddin Naqshband asos solgan tasavvuf suluki naqshbandiya deb ataladi. Hazrat Baxouddin Naqshband ta'limotida boshqalar mehnati bilan kun kechirishni, tekinxo'rlikni, ijtimoiy zulm va istibdod qat'iy qoralanadi. Mazkur ta'limot tarafdorlari tarkidunyochilikka, boy-zadagonlarning zulm va istibdodiga qarshi bo'lganlar, kishilarni faqat o'z qo'l kuchi, peshona teri bilan halol mehnat qilib kun kechirishga chaqirganlar. SHuning uchun o'z davridagi ilm–ma'rifatning, adabiyotning yirik namoyondalari bo'lmish Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bedil, So'fi Olloyor, Mashrab, Maxtumquli singari SHarqdagi ulkan taraqqiyparvar, insonparvar shoirlar va mutafakkirlar naqshbandiya yo'lini tanlab, barakali ijodlarida uning qadr-qimmatini yuksaklarga ko'targanlar.

Ulug'bek hukmronlik qilgan davrda fan va madaniyat keng taraqqiy etdi. SHu davrda Samarqandda qozizoda Rumi, Jamshid bin Ma'sudi, Muyiddin va uning o'g'li Mansur Koshiy, Ali ibn Muhammad Jurjoniy, Xirotda Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, ulug' rassom Behzod, tarixshunos Xondamir, Sulton Ali Mashhadiy va boshqalar barakali ijod qilganlar.

Boshqa tabiiyotshunoslar singari Ulug'bek va uning shogirdlari moddiy olamni kishi ongidan tashqarida, obektiv mavjudligiga shubha qilmadilar va uni chuqur o'rganishga da'vat etdilar. qomusiy ilmlar sohibi bo'lgan Mirzo Ulug'bek riyoziyot, falakiyot, musiqashunoslik, falsafa, tarix sohasida ijod qilgan. «Bir darajaning sinusini aniqlash haqida risola», «Risola dar ilmi musiqa», «Risolai yirik tarixiy kitob»larning muallifi Ulug'bek nomi butun dunyoga mashhur bo'ldi. Ayniqsa, unga shon-shuhrat keltirgan bebaho asar «Ziji jadidi Ko'ragoniy»dir. Bu asar Ulug'bekning 20 yil davomida olib borgan astronomik kuzatishlarining natijasi bo'lib, uning asosiy qismi yulduzlar jadvalidan iboratdir. Ulug'bek o'limidan keyin ikki yuz yil davomida bu jadval o'zining aniqligi va ilmiyligi bilan jahonda tengi yo'q xisoblab kelingan.

## REFERENCES

1. Kadamovich, Y. J., Muzaffarova, I. G., Maxmudovich, Y. B., Boxtiyarova, S. S., & Xabibullayevich, S. S. (2020). Social justice as a condition of socio-spiritual stability in society. *Journal of Critical Reviews*, 7(5), 816-818.
2. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Х., Муратова, Д.А., Хасанов, М.Н., & Эрниёзов, У.К. (2022). ЁШЛАР ЗАМОНАВИЙ МАДАНИЙ ҚИЁФАСИ ВА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОЎЖИЯТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (10), 376-386.
3. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Х., Кушаков, Файзулла Абдуллаевич., Валиев, Л.А., & Хасанов, М.Н. (2022). ҲОЗИРГИ ДАВРДА ИЖТИМОИЙ АДОЛАТ ҲАҚИДАГИ ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ТАЛҚИНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (9), 647-656.
4. Исмоил Саифназаров, & Сирожбек Ҳабибуллаевич Султанов (2022). ИЖТИМОИЙ АДОЛАТНИ МУСТАҲКАМЛАШДА ИЖТИМОИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ УСТУВОР ЖИҲАТЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (TSTU Conference 1), 71-76.
5. Раматов, Ж. С., Муратова, Д., Султанов, С. Х., Тухтабоев, Э., Кушаков, Ф., & Хасанов, М. Н. (2022). ИЖТИМОИЙ АДОЛАТ ВА ҚАДРИЯТЛАР ПЛЮРАЛИЗМИ. *World scientific research journal*, 8(1), 102-108.
6. Раматов, Ж. С., Эрниёзов, У. К., Султанов, С. Х., & Хасанов, М. Н. (2022). САНЪАТНИНГ ТАРИХИЙ-ФАЛСАФИЙ АСОСЛАРИНИНГ БУГУНГИ КУНДАГИ АҲАМИЯТИ. *World scientific research journal*, 9(2), 65-70.
7. Ramatov, J., Umarova, R., Baratov, R., Sultanov, S., & Khasanov, M. (2022). METHODS AND MEANS OF FORMATION OF SPIRITUAL MORAL CONSCIOUSNESS IN STUDENTS AND YOUTH OF UZBEKISTAN. *World scientific research journal*, 10(1), 257-262.
8. Жўрабоев, Н. Ю., Баратов, Р. Ў., Кушаков, Ф. А., Султанов, С. Х., & Хасанов, М. Н. (2022). ХИТОЙ ФАЛСАФАСИНИНГ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ҚАРАШЛАРИ. *World scientific research journal*, 9(2), 43-48.
9. RAMATOV, J., SULTANOV, S., NAZAROVA, N., KHASANOV, M., & VALIEV, L. THE PLACE AND ROLE OF WOMEN IN THE RAILWAY TRANSPORT SYSTEM OF UZBEKISTAN. *ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ Учредители: ООО" Институт управления и социально-экономического развития"*, (12), 49-52.

10. RAMATOV, J., UMAROVA, R., BARATOV, R., SULTANOV, S., NAZAROVA, N., & KHASANOV, M. WAYS OF REGULATING FAMILY RELATIONS AND PREVENTING CONFLICTS (IN THE EXAMPLE OF THE STATE OF UZBEKISTAN). *ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ Учредители: ООО" Институт управления и социально-экономического развития",(12), 45-48.*
11. РАМАТОВ, Д., УМАРОВА, Р., СУЛТАНОВ, С., НАЗАРОВА, Н., & ХАСАНОВ, М. ФИЛОСОФИЯ И БУДУЩЕЕ. *ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ Учредители: ООО" Институт управления и социально-экономического развития",(12).*
12. Султонов, С. (2017). Взгляды Амира Темура на нравственное и интеллектуальное воспитание. *Молодой ученый, (4), 626-627.*
13. RAMATOV, J., UMAROVA, R., SULTANOV, S., NAZAROVA, N., & KHASANOV, M. LEADERSHIP FACTOR IN PROVIDING YOUTH COMPETITIVENESS. *ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ Учредители: ООО" Институт управления и социально-экономического развития",(12), 40-44.*
14. RAMATOV, J., UMAROVA, R., SULTANOV, S., NAZAROVA, N., & KHASANOV, M. THE IMPORTANCE OF FORMING HIGH MORALITY AND SPIRITUALITY IN YOUNG PEOPLE. *ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ Учредители: ООО" Институт управления и социально-экономического развития",(12), 78-81.*
15. RAMATOV, J., UMAROVA, R., SULTANOV, S., NAZAROVA, N., & KHASANOV, M. THE ROLE OF THE SCIENCE OF PROFESSIONAL ETHICS IN THE TRAINING OF SPECIALISTS AND RELATIONSHIP WITH OTHER DISCIPLINES. *ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ Учредители: ООО" Институт управления и социально-экономического развития",(12), 23-26.*
16. РАМАТОВ, Д., СУЛТАНОВ, С., НАЗАРОВА, Н., ЭРНИЯЗОВ, У., ХАСАНОВ, М., & ВАЛИЕВ, Л. ПРАГМАТИЗМ ПРОТИВ ФИЛОСОФИИ ОБЩЕСТВА. *ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ Учредители: ООО" Институт управления и социально-экономического развития",(12).*
17. RAMATOV, J., BARATOV, R., SULTANOV, S., NAZAROVA, N., ERNIYOZOV, U., & VALIEV, L. THE ROLE OF AUROBINDO GHOSH'S CONCEPT OF EDUCATION. *ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ Учредители: ООО" Институт управления и социально-экономического развития",(12), 57-60.*

18. Sultanov, Sirojbek Habibullayevich (2023). YOSHLAR MA'NAVIYATIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3 (1), 698-709.
19. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Х., Муратова, Д.А., Хасанов, М.Н., & Эрниёзов, У.К. (2022). ЁШЛАР ЗАМОНАВИЙ МАДАНИЙ ҚИЁФАСИ ВА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (10), 376-386.
20. Раматов, Ж. С., Муратова, Д., Султанов, С. Х., Тухтабоев, Э., Кушаков, Ф., & Хасанов, М. Н. (2022). ИЖТИМОИЙ АДОЛАТ ВА ҚАДРИЯТЛАР ПЛЮРАЛИЗМИ. *World scientific research journal*, 8(1), 102-108.
21. Sultanov, Sirojbek Habibullayevich (2023). IJTIMOIIY ADOLATNI TUSHUNISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3 (1-2), 136-142.
22. Жуманиёзова Н.С. Ўзбекистонда таълим тизими шаклланишининг тарихий асослари // Илм сарчашмалари. - Ургенч, 2020. - №3. - Б. 49-54. (09.00.00; №17).
23. Жуманиёзова Н.С. Хорижий давлатлар таълим тизими тараққиёти (Сингапур мисолида) // Имом Бухорий сабоқлари. - Бухоро, 2020 - №2. - Б. 144-147. (09.00.00; № 9).
24. Jumaniyazova N.S. Reforms in improving the quality of higher education and its philosophical and legal basis // *International Journal of Psychosocial Rehabilitation: Vol. 24, Issue 08, 2020. - P. 6499-6505. (№3; Scopus).*
25. Jumaniyazova N.S. Modern education system and personnel policy in Uzbekistan // *International Journal of Research Available at: 2019 - P. 478-484. (№23; SJIF, 5.7).*
26. Жуманиёзова Н.С. Ўзбекистонда таълим сиёсати модернизацион босқич // Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. - Тошкент, 2020. - № 1.(84) – Б. 14-18. (09.00.00; №5).
27. Jumaniyazova N.S. Principles of state policy in the area of education // *The scientific heritage Budapest, Hungary, 2021. - Б. 46-48 (№23 SJIF, 5)*
28. Жуманиёзова Н.С. Современная система образования: интеграция и пропорциональность национальных процессов // *International Multidisciplinary Scientific Practical Conference on Applied Science and Humanities. Archive of Conferences, USA, Boston, 2021. - С. 48-49.*
29. Жуманиёзова Н.С. Вопросы повышения эффективности духовно-нравственного воспитания в системе образования // *Халықаралық ғылыми-*



тэжірибелік конференциясы: Международная научно - практическая конференция. – Астана, 2018. – Б.127-129.

30. Жуманиёзова Н.С. Таълим тизимида талаба-ёшларда танқидий тафаккур қобилиятини шакллантириш // Глобаллашув шароитида тинчлик ва барқарорликка таҳдид солувчи ғоявий, мафкуравий ва ахборот хуружларига қарши курашишнинг замонавий усулларини яратиш: Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Тошкент, 2019. – Б.204 -207.

31. Жуманиёзова Н.С. Янги Ўзбекистон олий таълими тизимидаги ўзгаришлар талқини // Учинчи ренессанс маънавияти: Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2021. – Б.176-179.

32. Жуманиёзова Н.С. The role of social services in the modernization of higher education // Ўзбекистон Республикаси олий таълими инновацион ривожланиш йўлида: Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Қўқон, 2019. –Б. 357-359.

33. Жуманиёзова Н.С. Ўзбекистон олий таълим тизимини халқаро миқёсда интеграциялашуви // “Транспорт соҳасида халқаро даражадаги мутахассис кадрлар тайёрлаш истиқболлари” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференцияси тўплами, Тошкент, - Б. 413-418.